

XORIJIY TILLARNI O'RGANISH VA UNDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Mamatov Ravshanbek

Qo'qon universiteti Andijon filiali dotsenti, f.f.f.d (PhD)

Andijan, Uzbekistan

Annotatsiya. Zamonaviy pedagogik amaliyotda yangi metod va vositalar tezkor joriy etilmoqda. Faqat texnologik bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan o'qituvchilar ta'lim jarayonini samarali loyihalashtira oladi. An'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, texnologik yondashuv o'quvchini faol bilim oluvchi, mustaqil fikrlovchi va muammolarni hal qiluvchi sub'ekt sifatida qaraydi. Interfaol ta'lim, suhbat va munozara kabi usullar o'quvchilarda ijodiy tafakkurni, muloqotni va bilimlarni chuqur o'zlashtirishni rivojlantiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ta'lim samaradorligi tanlangan metodning mosligi va o'z vaqtida qo'llanishiga bog'liqdir.

Kalit so'zlar: xorijiy tilni o'qitish, ta'lim texnologiyasi, interfaol ta'lim, suhbat, munozara, muammoli yondashuv.

ИЗУЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Маматов Равшанбек

Доцент Андижанского филиала Кокандского университета, кандидат

филологических наук (PhD)

Андижан, Узбекистан

Аннотация. В современной педагогической практике активно внедряются новые методы и средства обучения. Только педагог, обладающий технологическими знаниями и навыками, способен эффективно проектировать и планировать образовательный процесс. В отличие от традиционного обучения, технологический подход рассматривает учащегося как активного субъекта, самостоятельно осваивающего знания и решающего задачи. Использование интерактивного обучения, диалога и дискуссий способствует

развитию критического мышления, коммуникации и углублённого усвоения знаний. Результаты показывают, что эффективность обучения зависит от правильного выбора и применения метода в конкретных условиях.

Ключевые слова: преподавание иностранных языков, образовательные технологии, интерактивное обучение, диалог, дискуссия, проблемный подход

FOREIGN LANGUAGE LEARNING: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Mamatov Ravshanbek

Associate Professor, Andijan Branch of Kokand University, PhD in Philology

Andijan, Uzbekistan

Annotation. In modern pedagogical practice, new methods and tools are being rapidly introduced. Only teachers with sufficient technological knowledge and skills can effectively design and plan the educational process. Unlike traditional teaching, which views learners as passive recipients of knowledge, a technological approach recognises them as active subjects who acquire knowledge independently and solve problems creatively. Interactive methods such as dialogue and discussion foster critical thinking, communication, and deeper learning. The study highlights that the effectiveness of teaching depends on the appropriateness and timely application of the chosen method.

Keywords: foreign language teaching, educational technology, interactive learning, dialogue, discussion, problem-solving approach

Hozirgi pedagogik amaliyotda yangi yoʻl va vositalarni jadal tatbiq etilayotganini kuzatish mumkin. Taʼlimiy jarayonni texnologiyali loyixalashtirish va rejalashtirishni, faqat texnologik bilim, koʻnikma va malakaga ega boʻlgan oʻqituvchigina bajara olishi mumkin.

Barcha turli – tumanlikdan mavjud sharoitda va oʻquv rejasida berilgan vaqtda koʻzlanayotgan natijaga erishishni kafolatli taʼminlaydigan, soʻngra undan mana shu sharoit uchun mos keladigan, taʼlim berish texnologiyasining-yagona majmuini loyixalashtirish mumkin boʻladigan, axborot, muloqot va boshqaruvning shunday yoʻl va vositalarini farqlash va tanlashni uddalash muxim boʻlib hisoblanadi.

Ta'lim berish texnologiyasini loyixalashtirish va mavjud ta'lim berish texnologiyasini qo'llash "o'qituvchi, vaziyat madaniyati, shuningdek shaxsiy yoki talabalarning shaxsiy xususiyatlari bilan yuzma-yuz kelish yo'nalishi bilan ish tutmog'i kerak" (Ye.S.Polat, 2000)

Zamonaviy ta'lim texnologiyasida ta'lim oluvchining o'rni va vazifasiga kelsak, an'anaviy ta'lim berishda ta'lim oluvchi ta'lim beruvchi ta'siridagi bo'ysunuvchi ob'ekt. Bilim – birdan-bir maqsad. Xato-jazolanadi.

Texnologik yondashuvga asoslangan ta'lim berishda esa ta'lim oluvchi mustaqil bilish faoliyatini olib boruvchi, ta'lim jarayonining teng xuquqli sub'ekti hisoblanadi.

Bilim-shaxsiy muammolarni hal etish vositasi.

Xato qilishga haqqi bor – xatolar orqali o'rganadi.

An'anaviy ta'lim berishda, mexanik eslab qolishga, qayta tiklash (o'zgarishsiz) bayonga asoslangan, namuna bo'yicha ta'lim berish bo'lib, natijada ta'lim oluvchining sustkashligi, nutq faoliyatining bo'shashiga olib keladi.

Texnologik yondashuvda esa muammolarni izlash, bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan, muammoli vaziyatlarni yaratish, faol bilishning ijodiy tadqiqotchilik faoliyatiga asoslangan faol ta'lim berish usullari.

Ta'lim beruvchi umumiy natijani baxolaydi va ta'lim oluvchi bilan xamkorlikdagi mehnatlarini taxlil qiladi, ko'zlanayotgan natijalarga nima uchun erishilmadi va qisman erishildi.

Ta'lim usullarining yaxshi yoki yomoni mavjud emas. Usulning natijasini bajarilgan yoki bajarilmagan vazifa bo'yicha xulosa chiqarish mumkin. Natija esa usulning qo'llanishida soddalik va osonlik, vazifani hal etishda ko'rinadi. Eng ko'p tarqalgan usul interfaol ta'lim berish ya'ni suxbatli ta'lim berish, bunda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi, ta'lim oluvchi va kompyuterning o'zaro xarakati amalga oshiriladi.

Interfaollik daraja qancha yuqori bo'lsa, ta'lim berish jarayoni shuncha natijali bo'ladi.

Talabalarni kitob bilan ishlash usuli ta'lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish va qiziqtirish vazifalarini bajaradi.

Talaba o'quv jarayonida ta'lim beruvchi raxbarligida va uyda mustaqil kitob bilan ishlashi mumkin. O'quv mashg'uloti davomida ish olib borilsa, unda kitob bo'yicha o'rganadigan materialni aloxida qismlarga bo'lib, ularni nazorat qilish mumkin.

Yana bir ta'lim usuli – suhbat – dialogli (yunoncha dialogos –ikki bir necha insonlar orasidagi so'zlashuv), ta'lim berish va o'rganishning savol- javobli yo'lidir.

Bu usulning vazifasi – ta'lim oluvchini mavzuga qiziqtiradi, savollar yordamida bilimni eslash va bayon qilishga xarakat qilinadi. Ta'lim oluvchi o'qituvchi bilan birga asta – asta mustaqil fikrlash, yakunlash, xulosalash va umumlashtirish yo'li bilan yangi bilimlarni anglaydi va o'zlashtirib oladi.

Suhbatning yana bir afzalligi – ta'lim oluvchilar fikrlashini faollashtiradi va bilim kuchini rivojlantirishga yordam beradi.

Suhbat shakliga ko'ra “o'quv va davra suhbatiga” bo'linadi. “Davra suhbatiga” da ta'lim oluvchilar fikrini navbat bilan bildirish mumkin. Bunda eng muhim narsa savolni to'g'ri shakllantirish va berish hisoblanadi. Savollar bir–biri bilan mantiqan bog'liq, savol mavzu mohiyatini ochib berishi, tizimda bilimlarni o'zlashtirishga yordam berishi kerak.

Oson savollar faol bilish faoliyatini rag'batlantirmaydi, jiddiy munosabat esa bilishga rag'batlantirishini esda tutmoq lozim.

Munozara (bahs)- aniq muammo bo'yicha fikr almashish, muhokama shaklidagi ta'lim berishning yana bir faol usulidir. Bu usul barcha vazifalarni bajaradi. Munozara usulida asosan muammoni yechiladi. Boshqa so'zlovchilarni ham so'zlashishga imkon bo'ladi, bunda e'tiroz yo'lini tushunishga harakat qilib, unga hurmat bilan yondashishni o'rganadi. E'tirozchi bildirgan fikrlarni buzmasdan va ajablanmasdan mohirona rad eta olish madaniyatini kuchaytiradi.

Ta'lim oluvchi qaysi usul bilan bo'lmasin, o'z fikri va bilimni bosiqlik bilan ko'rsata olsa tengdoshlari, guruhdoshlari o'rtasida hurmat oshiradi.

O'rganuvchi o'z bilim doirasini qanchalik darajada ekanligini, qancha o'qib-o'rganish zarurligini va boshqalar fikrini o'rganish orqali o'z bilimi va odob doirasini muloqat qilishni shakillantirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L.V.Golish D.M Fayzullayeva Pedagogik texnologiyalarni loyixalashtirish va rejalashtirish" Toshkent 2011
2. G.M.Kleyman, Shkolam budushogo. Kompyutery v protsesse obucheniya. M.; «Radio i svyaz», 1987, str. 177.
- I. Rustamov Ingliz tili taxlili jarayonini takomillashtirish masalalari. "Uzliksiz ta'lim", №3,2013.